

Afg'oniston bo'yicha xalqaro konferensiya to'g'risida



“Afg'onistondagi vaziyatni tartibga solishda O'zbekiston va Pokiston sa'y-harakatlari: o'zaro manfaatli hamkorlik istiqbollari” mavzusida xalqaro onlayn-konferensiya bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti hamda Pokiston global va strategik tadqiqotlar markazi hamkorligida tashkil etilgan tadbirda har ikki mamlakatning tahliliy va tadqiqot markazlari ekspertlari, Pokistonlik diplomatlar, xavfsizlik va tashqi siyosat sohasidagi olimlar va mutaxassislar ishtirok etdi.

Tadbirda Afg'oniston inqirozini hal etishda O'zbekiston va Pokistonning roli bosh mavzu bo'ldi. Muloqot ishtirokchilari Afg'oniston iqtisodiyotini tiklash, Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi transmilliy hamkorlikni rivojlantirishga hissa qo'shadigan qo'shma loyihalarni amalga oshirish istiqboli masalalarini muhokama qilishdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktorining birinchi o'rinbosari Akramjon Ne'matov so'zga chiqib, xalqaro hamjamiyat, jumladan mintaqaviy mamlakatlarning sa'y-harakatlari natijasida Afg'onistonda tinchlik o'rnatish masalasida muayyan ishlar amalga oshirilayotgani, tez kunlarda Doxa shahrida Afg'oniston hukumati va Tolibonlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri muzokaralar o'tkazilishi rejalashtirilayotganini qayd etdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Afg'oniston Prezidenti Ashraf G'ani tashabbusi bilan 2018-yil mart oyida Toshkentda Afg'oniston bo'yicha tashkil etilgan xalqaro konferensiya yakunida qabul qilingan Toshkent Deklaratsiyasi Afg'onistonda tinchlikni ta'minlash bo'yicha o'ziga xos strategiyaga asos sifatida xizmat qildi.

Joriy yil fevral oyida Doxa shahrida AQSH va “Tolibonlar” harakati o'rtasida Tinchlik shartnomasi tuzilishi tinch inklyuziv muzokaralar jarayoni boshlanishida muhim qadam bo'ldi. U Afg'onistonda yuz bergan 40 yillik urushni yakunlash bo'yicha tarixiy imkoniyat chratdi va afg'on muammosini harbiy yo'l bilan hal etish imkonsizligini yana bir bor tasdiqladi.

A.Ne'matov Afg'onistonni ijtimoiy-siyosiy tiklashda jahondagi yirik mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar mamlakatni siyosiy jihatdan qat'iy qo'llab-quvvatlashi va moliyaviy ko'mak berishi muhimligini ta'kidladi. Bu mamlakat barqaror va uzoq muddatli tinchlikka erishishining zarur shartidir.

O'zbekistonning afg'on muammosini hal qilishdagi ishtiroki diplomatik sa'y-harakatlar bilan cheklanib qolmasligi qayd etildi. Bugungi kunda O'zbekiston transport, iqtisodiyot, enegretika va ta'lim sohalaridagi loyihalarni amalga oshirish orqali Afg'onistondagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga salmoqli hissa qo'shmoqda, pandemiya tufayli yuzaga kelgan gumanitar inqirozni yengishda qo'shni mamlakatga salmoqli yordam bermoqda.

Xususan, oziq-ovqat mahsulotlari va dori-darmon vositalarining uzluksiz tranzitini ta'minlash maqsadida mamlakatimiz O'zbekiston - Afg'oniston chegarasidagi nazorat-o'tkazish punktlari ishini shtat rejimida ta'minladi va O'zbekistondan Afg'onistonga va Afg'onistondan yurtimizga yuk tashishda 50 foizgacha chegirma berish muddatini 2020-yilgacha uzaytirdi.

Ushbu chora-tadbirlar o'zaro savdo ko'lami oshishiga, shuningdek, dunyoning barcha mamlakatlari uchun bunday og'ir vaziyatda Afg'onistonga yetkazib berilayotgan mahsulot turlarini kengaytirishga muhim hissa

qo'shdi.

Masalan, 2020-yilning birinchi yarmida o'zaro savdo 24 foizga o'sgan va 332,9 million dollarni tashkil etgan. Temir yo'lda yuk tashish hajmi 50,7 foiz o'sgan va 2,20 million tonnani tashkil etgan. Bu gumanitar inqiroz sharoitida Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.



Pokiston Global va strategik tadqiqotlar markazi bosh direktori,

general-mayor Holid Amir Jaffriy Afg'onistondagi vaziyatni tartibga solishda O'zbekiston tomonidan qabul qilinayotgan sa'y-harakatlarga e'tibor qaratarkan, Afg'onistondagi muzokaralarni o'tkazish bo'yicha hozirgi amaliy natijalarga erishishda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan Toshkent konferensiyasi muhim rol o'ynaganini qayd etdi.

Uning so'zlariga ko'ra, konferensiya yakunida imzolangan Toshkent Deklaratsiyasi Afg'onistonda uzoq muddatli va barqaror tinchlikka erishish, Afg'onistonning mustaqilligi, hududiy yaxlitligi va milliy birligini hurmat qilish, barcha afg'onlarning teng huquqlarini ta'minlash, zo'ravonlikka barham berish singari muhim jihatlarni qamrab olgan strategik hujjat hisoblanadi.

General-mayor Jaffriy Afg'onistonga qo'shni O'zbekiston va Pokiston mamlakatda tinchlik jarayonini o'rnatish va Afg'onistonni tiklashda muhim rol o'ynashi mumkin va lozimligini qayd etdi.

Ayni damda u O'zbekiston Prezidentining Afg'onistonni mintaqaviy savdo-iqtisodiy aloqalarga jalb etish bo'yicha tashabbuslarini ham alohida ta'kidladi.




O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti

Markaz rahbari Baxtiyor Mustafoyevning qayd etishicha, Afg'onistonda tinchlik o'rnatilishi Janubiy va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida transmilliy hamkorlikni kengaytirish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

"Mozori-Sharif - Qobul - Peshavor" temir yo'l yo'lagi qurilishiga oid loyihaning amalga oshirilishi Markaziy Osiyo mamlakatlariga Gvadar va Karachi dengiz portlariga chiqish va shu orqali o'z eksport salohiyatini to'la hajmda namoyon etish imkonini beradi. Ayni damda bu Markaziy Osiyodan Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo mamlakatlariga turli mahsulotlarni yetkazib berishda Pokistonni mintaqa mamlakatlari uchun muhim xabga aylantiradi.

Baxtiyor Mustafoyevning so'zlariga ko'ra, Afg'onistonda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda mamlakat iqtisodiyotini tiklash uchun milliy kadrlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Ana shu maqsadda 2018-

yilning yanvar oyida hamda joriy yil Termiz shahrida Prezidentimiz tashabbusi bilan Ta'lim markazi ochildi. Bu yerda hozirgi kunda 172 nafar talaba "O'zbek tili va adabiyoti", "Akusherlik va hamshiralik ishi", "Yer usti transport tizimi va ularning ekspluatatsiyasi" yo'nalishlari bo'yicha tahsil olishmoqda. Talabalarning 46 nafari qizlar.



Panjob universiteti **professori Niaz Ahmad Axtarning** so'zlariga ko'ra,

siyosat, iqtisodiyot va madaniyat sohasidagi afg'on inqirozini hal etishda O'zbekiston tomonidan qabul qilinayotgan amaliy chora-tadbirlar Pokiston manfaatlariga to'la javob beradi.

O'zbekistonning Afg'onistonda amalga oshirayotgan infratuzilma va iqtisodiy loyihalari Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi transmilliy hamkorlikning ulkan salohiyatidan foydalanish imkonini beradi.

Bu borada pokistonlik olim O'zbekistonning yangi mintaqaviy siyosati Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni yana-da faollashtirishga turtki beradi.


O'z navbatida, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Pokiston o'rtasidagi salohiyat va hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiq etish maqsadida joriy yil iyun oyida Panjob universitetida Mintaqaviy integratsiya markazi ochildi.



Pokistonning Afg'onistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Zohid

Nasrullo Xon O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi va Afg'onistondagi vaziyatni tartibga solishdagi muhim rolini qayd etgan holda, Islomobodning O'zbekiston bilan qator masalalar bo'yicha hamkorligini faollashtirishdan manfaatdor ekanini bildirdi. U O'zbekiston afg'on yo'nalishida pragmatik va izchil siyosat yuritayotganiga alohida e'tibor qaratdi.

Zohid Nasrullo Xon tez orada afg'onlararo muzokaralarni tashkillashtirish imkoniyati xususida fikr bildirganda, Afg'oniston o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga ko'tarilayotganini ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra, O'zbekistonning ishonchli sherik sifatidagi xalqaro imijini hisobga olganda, Toshkent va Islomobodning afg'on yo'nalishidagi sa'y-harakatlarini birlashtirish rasmiy Qobul rahbarligida siyosiy jarayonni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro hamjamiyatni birlashtirish hamda Afg'onistonga mojarolardan keyingi davrda iqtisodiy ko'mak berishga xizmat qiladi.



Pokiston Global va strategik tadqiqotlar markazi maslahatchilari Kengashi

a'zosi Said Nazir Muhmand Afg'onistondagi tinchlik va barqarorlik Pokiston va O'zbekistonning umumiy manfaatlariga javob berishini qayd etdi.

Bundan tashqari, pokistonlik ekspertning so'zlariga ko'ra, Toshkent va Islomobod SHHT va Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti orqali Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashi mumkin. O'zbekistonning Iqtisodiy hamkorlik tashkilotidagi ishtirokini faollashtirish va uning o'zaro manfaatli va muntazam muloqotini yo'lga qo'yishga tayyorligi ko'p tomonlama loyihalarni amalga oshirishga keng imkoniyat yaratadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va

mintaqalararo tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i Rustam Xurramovning fikricha, iqtisodiy va infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi Afg'oniston Islom Respublikasidagi vaziyatni barqarorlashtiribgina qolmay, O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi transmintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga ham kuchli turtki beradi.

Bu mamlakatlar o'rtasidagi madaniy-iqtisodiy hamkorlikning hali ro'yobga chiqmagan salohiyatini to'la amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi tovar aylanma hajmi 2019-yil yakunlariga ko'ra, 5 baravar o'sdi va 123 million dollarni tashkil etdi. Ayni paytda 2016-yildan 2019-yilgacha Pokistondan O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni 400 nafardan 4 ming nafarga ya'ni, 10 baravar oshdi.

Konferensiya yakunida ishtirokchilar Afg'onistondagi tinchlik va barqarorlik Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasini barqaror rivojlantirishda istiqbolli "drayver" sifatida ulkan transmilliy loyihalarni amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratadi, degan fikrni bildirishdi.

Konferensiya Pokiston OAVda keng yoritildi va ijobiy baholandi.

Pokistonning "IslamabadPost", "National Herald Tribune", "The News" nashrlari Afg'oniston masalasi bo'yicha navbatdagi O'zbekiston - Pokiston konferensiyasi haqida fikr bildirar ekan, Afg'onistondagi vaziyatni tartibga solishda O'zbekiston tomonidan qabul qilinayotgan chora-tadbirlar keng qamrovli ekaniga e'tibor qaratdi.

Xususan, "The News" nashri "Afg'on urushi - tarixdagi eng uzoq davom etgan mojarolardan biri" sarlavhali maqolani chop etdi. Unda gazeta sharhlovchilari O'zbekistonning Afg'oniston mustahkam tinchlikka erishishida qo'shma sa'y-harakatlarni birlashtirish zarurligi to'g'risidagi taklifini yuqori baholadi.

Mualliflar fikricha, O'zbekiston tomonidan Afg'onistonda amalga oshirilayotgan transport-infratuzilma loyihalari afg'on zaminini Janubiy Osiyoni Yevroosiyo mintaqasi bilan bog'laydigan quruqlikdagi ko'priikka aylantiradi, ikki qardosh mamlakat o'rtasidagi geografik to'siqlarni yengish imkonini beradi.

"Islamabad Post" gazetasi kuzatuvchilari ushbu fakti tasdiqlagan holda, "O'zbekiston - Pokiston -

Afg'oniston: tinchlik uchburchagi" sarlavhali maqolani chop etdi. Unda Shavkat Mirziyoyev hukumat boshqaruviga kelishi bilan "O'zbekistonning Afg'onistonga oid siyosati mamlakat tashqi siyosiy strategiyasi kun tartibiga chiqqani" aytiladi. O'sha paytdan buyon O'zbekiston afg'on muammosiga nisbatan chuqur va oqilona o'ylangan siyosatni yuritmoqda.

Bu borada "National Herald Tribune" gazetasi O'zbekistonni afg'on maydonidagi mas'ul ishtirokchi, deb atab, O'zbekiston va Pokiston hukumati Afg'onistondagi tinchlik jarayonini mamlakatdagi ko'p yillik inqirozni barqarorlashtiradigan yagona usul sifatida baholamoqda.

Manba